XALQ DEPUTATLARI KOSON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 2-mart VII-22-41-4-60-K/26 Koson tumani

Geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli Qonunining 10-moddasi talablaridan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2/2-776-sonli Ekspert xulosasi, tuman hokimi A.Boykarayevning taklifini ko‘rib chiqib, Xalq deputatlari tuman Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Islamova)ning 2026-yil 18-fevraldagi DKQ 03-03/14-26-sonli qarorini muhokama qilib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahaliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L D I:

1. Koson tuman hokimi A.Boykarayevning geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari to‘g‘risidagi taklifi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Koson tumani Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Islamova)ning 2026-yil 18-fevraldagi DKQ 03-03/14-26-sonli qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Koson tuman hokimi A.Boykarayevning geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari to‘g‘risidagi taklifi ilovaga muvofiq ma’qullansin

4. Tuman hokimining maslahatchisiga O‘zbekiston respublikasi Geografik obektlar nomlarining davlat reyestri (Geografik obektlar nomlari veb portali)ga yangi nomlanayotgan obektlar bo‘yicha ma’lumot kiritsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash tuman hokimining o‘rinbochari Sh.Jo‘rayev zimmasiga hamda qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Islamova) zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

KENGASH RAISI **OCHILOV UBAYDULLO AXMATOVICH**

Xalq deputatlari Koson tumani
Kengashining
2026-yil 2-martdagi
VII-22-41-4-60-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Koson tumanida nomlanayotgan va qayta nomlanayotgan geografik obektlar

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi Tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Mahalla fuqarolar yig‘ini	“Gulbog‘” mahalla fuqarolar yig‘ini	“Gulbog‘” mahalla fuqarolar yig‘ini	“Oqtepa” mahalla fuqarolar yig‘ini	**“Oqtepa”** mahalla fuqarolar yig‘ini–deb normallashi Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Mahalla fuqarolar yig‘ini	“Gulobod” mahalla fuqarolar yig‘ini	“Gulobod” mahalla fuqarolar yig‘ini	“Guvalak” mahalla fuqarolar yig‘ini	**“Guvalak”** mahalla fuqarolar yig‘ini–deb normallashi Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Qabriston	“Mudin” mahalla fuqarolar yig‘ini	Mudin	Kunliktepa Qabristoni	**“Kunliktepa”** –qabristoni–deb nomlanishi Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Qabriston	“Ravot” mahalla fuqarolar yig‘ini	Koson	“Eshoni Kaloni Kosoniy” qabristoni	**“Eshoni Kaloni Kosoniy”** qabristoni–deb nomlanishi Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.